



**SIYOSIY VA IQTISODIY DISKURSDA IJTIMOIIY ROLLARNING
QURILISHI VA JAMIYAT MAYDONIDAGI KORINUVCHANLIK**

Karimova Fotima Kamoliddin qizi

*Chirchiq Davlat pedagogika universiteti
fakultetlararo Chet tillar kafedrası o'qituvchisi.
f.karimova@cspu.uz*

Ilmiy rahbar:

Nilufar Abduraxmonova

*O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti
Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası mudiri, professor
n.abduraxmonova@nuu.uz*

Annotatsiya: Ushbu maqola siyosiy va iqtisodiy kontekstda ijtimoiy rollarning shakllanishi va jamoatchilik muhokamasida ularning namoyon bo'lishi jarayonlarini tahlil qiladi. Tadqiqot rollarning ijtimoiy konstruksiya ekanligini, jamiyatning normativ, madaniy va institutsional omillari ta'sirida ular qanday rivojlanishini ko'rsatadi. Shuningdek, siyosiy va iqtisodiy diskurslar ijtimoiy rollarni aks ettirish, tasdiqlash yoki o'zgartirishda qanday vosita bo'lib xizmat qilishini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Siyosiy diskurs, iqtisodiy diskurs, Ijtimoiy rollar, jamiyat maydoni, ko'rinuvchanlik, Ijtimoiy konstruksiya.

Jamiyatning iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi o'zgarishlar bevosita ijtimoiy hayotga ta'sir ko'rsatishi hammaga ma'lum. Shu sababli, o'tgan asrning ikkinchi yarmi va joriy asrning birinchi choragida ro'y bergan iqtisodiy va siyosiy rivojlanishlar ijtimoiy sohadagi taraqqiyotga turtki bo'lgan, aksincha, inqirozli jarayonlar esa jamiyatda salbiy tendensiyalarni yuzaga keltirgan. Ijtimoiy soha deganda, insonlar, ularning guruh va sinflari, millat va elatlar kabi ijtimoiy birliklar, oila kabi institutlar, ular o'rtasidagi tarixiy munosabatlar hamda bu munosabatlarni tartibga soluvchi tashkilot va muassasalar tushuniladi. O'tgan asrning ikkinchi yarmi va yangi asr boshlarida jamiyatning ijtimoiy sohasida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Xususan:

1. Turli millat va elat vakillarining turmush darajasi yaxshilandi.
 2. Jamiyat taqdim etadigan ne'matlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaydi.
 3. Jamiyat a'zolari, guruhlar va sinflar o'rtasidagi munosabatlar insonparvarlashdi.
 4. Ijtimoiy munosabatlarni belgilovchi institutlarning salohiyati yuksaldi.
- Zamonaviy jamiyat, bir asr avvalgi jamiyatdan ijtimoiy parametrlar



bo'yicha tubdan farq qiladi. Yuqoridagi yutuqlar ijtimoiy sohadagi rivojlanishning natijasi sifatida baholanishi lozim. Biroq, ijtimoiy sohada rivojlanish bilan bir qatorda ba'zi salbiy jarayonlar ham kuzatilmoqda. Global miqyosda turli millatlarda milliy o'zlikning yo'qolishi shular jumlasidandir.

Milliy o'zlik – muayyan xalqqa yoki millatga xos bo'lgan, ularni boshqalardan ajratib turuvchi xususiyatlar majmuidir. Milliy o'zlik millatning tarixi, qadriyatlari, an'analari, madaniyati va yashash tarzida aks etadi. U millatni ulug'lash, uning manfaatlarini himoya qilish, milliy g'urur, til, adabiyot, madaniyat, din, tarix va urf-odatlarini qadrlash, o'z Vatanini sevishtuyg'ularini o'z ichiga oladi. Milliy o'zlik boshqa millatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar orqali yanada boyib boradi. Bu aloqalar natijasida millatlar bir-birining tajribasi, bilimi va g'oyalarini o'zlashtirib, o'z milliy xususiyatlarini takomillashtiradi. XX asrning so'nggi o'ttiz yilida siyosiy-ijtimoiy diskursning paydo bo'lishi va siyosiy nutqni tahlil qilish (political discourse analysis) muhim ahamiyat kasb etdi. Biroq, til va siyosatning o'zaro aloqasini o'rganish an'analari qadimga borib taqaladi. Qadimgi faylasuflar, jumladan, Platon va Aristotel davridan boshlab tilning siyosatdagi roli o'rganilgan. Aristotelning insonni siyosiy mavjudot sifatida ta'riflashi, uning nutq qobiliyatiga ega ekanligi bilan bog'liqdir. Insonlarning o'zaro muloqoti va tilning rivojlanishi siyosat tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Siyosiy diskurs atamasiga ta'rif berishdan avval, uning o'rganish ob'ektini aniqlash zarur. Ko'pincha "siyosiy nutq" deganda siyosatchilar tomonidan aytilgan gaplar yoki ularning matnlari tushuniladi. Tashqi ko'rinishdan bu tushunarli bo'lsa-da, siyosiy diskurs tahlilining yagona ishtirokchilari faqat siyosatchilar emas.

Siyosiy tadqiqotlarning ko'pchiligi, xususan, AQShda prezidentlik ritorikasini o'rganish kabi ilmiy ishlanishlar professional siyosatchilar, jumladan, prezidentlar, bosh vazirlar, hukumat a'zolari, parlament deputatlari va siyosiy partiyalar nutqlariga qaratilgan. Bu yondashuv tibbiyot, huquq yoki ta'lim sohalarida tegishli mutaxassislar nutqini o'rganishga o'xshashdir. Biroq, siyosiy diskurs tahlilida siyosatchilar bilan bir qatorda, jamoatchilik, xalq, fuqarolar hamda boshqa guruhlar ham muhim o'rin tutadi. Siyosiy kommunikativ jarayonlarda "ommaviy axborot vositalari" va boshqa toifalar ham siyosiy nutqning tinglovchilari va qabul qiluvchilari sifatida tadqiqotlarga kiritilishi lozim. Shunday qilib, siyosiy muloqotning ko'plab ishtirokchilari tadqiqot maydoniga kiradi.

Siyosiy munozaralarda ijtimoiy rollarning yuzaga kelishi. Siyosiy munozaralar davomida turli ijtimoiy rollar hosil bo'ladi va ko'rinadi. Bularga quyidagilar kiradi. Hokimiyatdagi shaxslar (siyosatchilar, davlat arboblari): Ularning chiqishlari, qabul qilgan qarorlari va harakatlari jamiyatda ma'lum



rollarni o'rnatadi. Ular o'zlarini xalq posboni, mamlakat rahbari, taraqqiyot peshvosi kabi rollarda ko'rsatishlari mumkin. Bu rollar orqali ular jamiyat a'zolaridan muayyan munosabatni (qo'llab-quvvatlash, ishonch, bo'ysunish) kutishadi. O'zgarish tarafdorlari (muqobil kuchlar): Hukmron siyosiy kuchlarning faoliyatiga qarshi turish, boshqa g'oyalar va yechimlar taklif etish orqali ular o'zlarining "xalq dosti", "erkinlik himoyachisi" kabi rollarini yaratadilar.

- Faol fuqarolar va jamoat vakillari: Aniq ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqish, norozilik bildirish, jamiyatni safarbar etish orqali ular o'zlarini "adolat posboni", "ijtimoiy o'zgarishlar tashabbuskori" deb ko'rsatishadi. Oddiy fuqarolar (mediada yoki norasmiy suhbatlarda): Siyosatchilar tomonidan yaratilgan rollarga javob berish, o'zlarining "sodiq fuqaro", "tanqidiy tinglovchi", "huquqlar himoyachisi" kabi rollarini namoyon etish orqali siyosiy muhokamalarga ta'sir ko'rsatishadi. Jamiyat maydonida aks etishi (Namoyon bo'lish usullari): OAV (Ommaviy axborot vositalari): Yangiliklar, tahliliy dasturlar, suhbatlar, reportajlar orqali siyosatchilarning harakatlari, nutqlari va ularning ijtimoiy rollari aks sado beradi.

- Ijtimoiy tarmoqlar: Fuqarolar o'z fikrlarini bildirish, siyosatchilarga javob qaytarish orqali rollarni tasdiqlash yoki rad etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

- Ommaviy tadbirlar: Mitings, yig'ilishlar, norozilik namoyishlari kabi hodisalar ijtimoiy rollarning jismoniy ko'rinishiga aylanadi.

- Qonunchilik va siyosiy jarayonlar: Qonunlarning qabul qilinishi, siyosiy qarorlarning qabul qilinishi ma'lum ijtimoiy rollarning qonuniy e'tirof etilishini yoki shakllanishini ta'minlaydi.

- OAV va biznes nashrlari. Kompaniyalarning moliyaviy natijalari, iqtisodiy bashoratlari, tadbirkorlar faoliyati haqidagi ma'lumotlar.

- Bozor va savdo nuqtalari. Xaridorlarning xatti-harakatlari, mahsulot narxlari va ularning mavjudligi. Mehnat bozorlari va kasaba uyushmalari. Ishchilarning talablari, ish tashlashlar, muzokaralar. Iqtisodiy forumlar va anjumanlar. Ishbilarmonlar, hukumat a'zolari va ekspertlarning fikr almashuvlari. Davlat statistika agentliklari va moliyaviy hisobotlar. Iqtisodiy ko'rsatkichlar va tendensiyalar haqidagi rasmiy ma'lumotlar.

Siyosiy va iqtisodiy munozaralarda ijtimoiy rollar doimo shakllanadi, muhokama qilinadi va o'zgaradi. Ushbu rollarning jamiyat hayotida aks etishi esa ushbu munozaralarning ta'sirchanligi va voqelikdagi oqibatlarini belgilaydi.



Tahlil jarayonida ushbu rollarning qanday yaratilayotganini, qanday munosabatlar shakllanayotganini va qanday kuchlar ularning ko‘rinishiga ta’sir etayotganini anglash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR

1. Ухванова И.Ф. План содержания текста: от анализа к синтезу, от структуры к системе. И.Ф.Ухвановаю Философская и социологическая мысль. Киев,1993-№3
2. Ухванова И.Ф. Смысловые и сущностные параметры политического дискурса в фокусе внимания исследователя. И.Ф.Ухванова. Язык и социум: материалы II междунар. конф. – Минск, 1998. Киев.
3. What is Political Discourse Analysis? Teun A. van Dijk. Universiteit van Amsterdam
4. van Dijk, T. A., ed. 1985. Handbook of Discourse Analysis. Vol. Discourse and Dialogue. London: Academic Press.